

TARBIYACHILARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ASARLAR BILAN TANISHTIRISHGA DOIR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Xo'jamberdiyeva Shahnoza Ko'paysinovna

Namangan davlat universiteti dotsenti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.hujamberdiyeva0505@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8028345>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish o'z mazmuni va tashkiliy-pedagogik aspektlariga ko'ra integrativ xususiyatga ega ekanligi, bu o'rinda badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayolot olamini, fantaziyasini rivojlantirishi, bu borada tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga doir faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy asar, bolalar adabiyoti, idrok, tarbiyachi pedagog, hikoyalar, ertaklar, she'rlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish o'z mazmuni va tashkiliy-pedagogik aspektlariga ko'ra integrativ xususiyatga egadir. Bu o'rinda badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayolot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar.

Bolalarbop barcha asarlarda yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri, o'y kechinmalari, orzu-istaklari, voqelikka estetik munosabati o'z ifodasini topadi. Ularning aksariyati yozuvchilar (kattalar) tomonidan yaratilsa-da, voqelik bolalar dunyoqarashi nuqtai nazaridan talqin va tadqiq etiladi, bolalar tilidan hikoya qilinadi va baholanadi.

Bolalar turli faoliyatlari davomida badiiy adabiyot orqali tanishgan qahramonlariga taqlid qilishga o'rganadilar. Taqlid asosida hayotiy harakatlar modelini o'zi uchun shakllantirib oladilar. Maktabgacha ta'lim hayotiy maktab sifatida bolalar uchun kerakli ma'lumotlarni badiiy adabiyot orqali o'rgatadi. Bolalar o'rgangan ma'lumotlarini hayotda uchraydigan voqea-hodisalar bilan solishtiradilar. Natijada ijobiy qahramonlar hatti-harakatlariga mos faoliyat orqali atrofdagilar bilan muloqotga kirishadilar, odobli va yaxshi bola rolini ijro etadilar. Shuning uchun ham badiiy adabiyotni bola shaxsini shakllantirish va nutqni rivojlantirishning muhim vositasi, bolalarni estetik va axloqiy tarbiyalash vositasi deb aytish mumkin.

Badiiy asarlar bolaning atrof-muhitga bo'lgan to'g'ri munosabatini shakllantirishga yordam beradi, real hayot omillarini umumlashtiradi, hayotni, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlar dunyosini bilishga yordam beradi. U bolaning tafakkuri va tasavvurini rivojlantiradi, his-tuyg'ularini boyitadi. Birgina misol, ya'ni "ona" so'zining mohiyatini va ta'sirchanligini badiiy adabiyot orqali yaqindan taniydilar. Badiiy adabiyot shaxs sifatida ilk rivojlanish davridanoq real hayotga bolani yaqinlashtiradi. Shuning uchun rasmiy ertaklar va multfilmlarni bolalar

xush ko'rib ko'radilar. Ular rang-barang rasmlarda hayot timsolini ko'rishga intiladilar. Bundan tashqari bolalar nutqining rivojlanishi ham badiiy adabiyot bilan hamohanglikda kechadi. Yoshlik davridanoq bolalar so'z orqali bolalar shoir va yozuvchilar bilan ma'naviy muloqotga lutfan kirishadilar. Bola ularning g'oyalari va his-tuyg'ularini, fikrlar va til tizimini tushunishni boshlaydi. Badiiy shakllarning ma'nosini tushunishda bolalarga ota-onalar, pedagoglar va yaqinlari yordam beradi.

Bizning tadqiqotimizda maktabgacha yoshdagi bolalarga badiiy asar shakli, ba'zi xususiyatlari, matn tilining barqaror burilishlari, ritmi, qofiyasi va boshqa jihatlarini alohida ko'rsatishga urg'u berildi. Biroq bu jarayonda, ya'ni, badiiy materialni idrok etishda bolalarning individual xususiyatlari, bolalarning badiiy moyilligiga e'tibor qaratish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kofiya va ritmni diqqat bilan eshituviga erishish uchun ularda albatta nasr va she'riyat o'rtasidagi asosiy farqlar shakllangan bo'lishi lozim. Pedagog tomonidan aytilgan matn yoki satrni bolalar uning ritmiga qarab nomini aytishga o'rganadilar. Bunda bolalarning diqqat bilan eshitish ko'nikmalari rivojlantirilishiga erishiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy asarlarga ijobiy munosabatini, badiiy didini, kitoblar dunyosida hayolan harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishda pedagogning metodik faoliyati, ya'ni bolalar yoshi va individual jihatlarini inobatga olingan usul va vositalardan foydalanishi muhim omillardandir. Bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishda og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi. Bu usullardan integrativ qo'llash ham pedagogning metodik faoliyatida keng qo'llanish uchun taklif etildi.

Pedagogning metodik faoliyati vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda kitobga bo'lgan ishtiyoqni, qiziquvchanlikni shakllantirish va o'z vaqtida payqash.
2. Rasmi ifodalar va illyustratsiyalarni ko'rib tushunish va nutqiy tasvirlash qobiliyatini shakllantirish.
3. Qahramonlarning alohida harakatlarini ajratib olish va savol-javobda ulardan foydalanishga tayyorlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirishda qo'llaniladigan usullardan biri bu sahnalashtirishdir.

Sahnalashtirish usuli qo'llanilganda bolalar asarni sevishtga, uni mazmunan o'zlashtirishga erishdilar. Ayniqsa, tadqiqot davomida rollar taqsimoti jarayonida bolalar o'rtasida qahramonlarning talash bo'lishi kuzatildi. Bunda pedagoglar uchun quyidagi ish turini qo'llash taklif etildi. Bolalarga quyidagicha topshiriq berildi:

1. Berilgan sochma rasmlarni nomlash va asar bo'yicha turkumlash.
2. Oldin o'zlashtirilgan asar bo'yicha boshlab berilgan qahramon bilan bog'liq epizodni davom ettirish.
3. Oldin yod olingan va o'zlashtirilgan she'rlardan yod olish (bir-biri bilan teng natijalarni qo'lga kiritgan bolalar she'r misralarini navbat bilan aytadi, kim she'r aytishdan to'xta qolsa, g'olib bolaga qahramon rolini bajarish topshiriladi).

Bolalarga rollar taqsimlab beriladi. Rol ijrolari bo'yicha ko'rsatmalar va taqlid qilish jarayoni tashkil etiladi. Sahnalashtirish usuli natijalari mashg'ulotning o'zida va muayyan tadbirda namoyon bo'ladi. Ijroda to'siqlarga uchragan bolalarga individual yordam beriladi. "Sahnalashtirish dizayni" texnologiyasi ham taklif etildi. Bunda bolalarga aniq badiiy asar bo'yicha berilgan rollar ijrosi yakunida qaysi qahramonning hatti-harakatlariga o'zgartirish

kiritmoqchisan? savoli beriladi. So'ngra bir bola o'z qahramonidagi rol ijrosida boshqa element qo'shgani xaxoti, boshqa rol ijrosidagi bola ham o'z qahramoni harakatlariqa vaziyatqa mos ravishda o'zgartirish kiritadi. Shu tartibda hayotiy hikoyalarni ham sahnalashtirish topshiriqlari berib borildi. Bolalar o'zaro va mustaqil ravishda mazmunga muayyan o'zgargan element kiritilishi zahoti rollar ijrosini o'zgartirishi amalga oshirildi.

Bolalar adabiyoti bilan tanishtirish mashug'lotlarida keng qo'llanilgan usullardan biri bu yodlash. Bolalarga kichik-kichik she'rlarni yodlash topshiriqlari berildi. Bolalarga she'rni oson yodlash imkonini berish maqsadida mnemonik yondashuvlardan foydalanildi. Mnemonikada she'rning qator boshidagi so'zini shartli ifodalar bilan belgilashga e'tibor qaratildi. Shunda bolalar qatorni belgiga qarab qaysi so'zdan boshlash kerakligini eslaydi va qatorni yoddan aytadi. Shu tartibda bir necha bor takrorlatish orqali hamda uyga takroran yod olish topshiriqlari berish bilan bolalar tomonidan she'rning yod olinishiga erishildi.

Sanab o'tilgan usullarni tarbiyachi-pedagoglar integrativ tarzda qo'llashi ham ijobiy natija berishi kuzatildi. Bolalar adabiyoti bilan tanishtirish mashug'lotlarida keng qo'llanilgan usullardan biri bu tinglash va tushunishdir. Tarbiyachi tomonidan ta'sirli va ifodali o'qilgan asarlar bolalarni tinglab, tushunishlarini ta'minlaydi. Tinglangan asarni tahlil qilish, ma'nosini tushunish, yodda saqlash, o'z so'zlari bilan bayon etish badiiy asar ustida ishlash bosqishlarini tashkil etadi.

Badiiy asarlarni vizual vositalar yordamida namoyish qilish – taqdimot usuli ham qo'llanildi. Tajriba-sinov ishlari davomida ikkala usulni integratsiyalagan "Ifodali taqdimot" texnologiyasi qo'llanildi. Bunda ifodali o'qib eshittirilgan asardagi rollar yopiq rasmlardan tanlash yordamida taqsimlandi. So'ngra rollar ijrosi bo'yicha har bir bolaga topshiriqlar tushuntirildi. Badiiy adabiyot va nutqni rivojlantirish mashg'uloti davomida ko'pgina uslubiy texnikalarning maqsadi matnni tinglash va tushunish jarayonini yengillashtirishni, bolalar tomonidan asarni eslab qolishga yordam berishni ko'zda tutmog'i lozim.

Shuning uchun ifodali o'qish pedagogdan dastlabki tayyorgarlikni talab qiladi. Dastlabki tayyorgarlikka asarni tahlil qilish, mag'zini chaqish, ichida va ovoz chiqarib o'qish mashqlari kiradi.

Hamma tayyor bo'lganidan so'ng sahna ko'rinishi boshlandi. Rollar ijrosiga qarab bo'yalgan plakat ham paralel namoyish etildi. Shu tartibda bolalarning birgalikdagi faoliyati badiiy asar taqdimotida namoyish etildi.

Mazmuni hayotiy va rang-barang rasmlari ifodalarga ega bo'lgan badiiy asar san'at asari sifatida maktabgacha yoshdagi bolaga bevosita ta'sir qilish kuchiga egadir. Mazmuni va jozibadorligi bilan bolalar uchun qiziqarli bo'lgan badiiy asarlar qahramonlarning harakatlari va ularning oqibatlarini namoyishi orqali bolalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladi.

Badiiy adabiyot va nutqni rivojlantirish mashg'uloti davomida ko'pgina uslubiy texnikalarning maqsadi matnni tinglash va tushunish jarayonini engillashtirishni, bolalar tomonidan asarni eslab qolishga yordam berishni ko'zda tutmog'i lozim. Ushbu maqsadlarni hal qilish uchun quyidagi texnikadan foydalanish pedagoglarga taklif etildi.

Har bir yosh davriga xos xususiyatlarni sharhlash orqali quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ta'sirchan vositasi bo'lib, u ular nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan hissa qo'shadi. Badiiy adabiyot she'riy obrazlar

orqali bolaga jamiyat, tabiat hayoti, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlarni tushunishga yordam beradi, emotsiyani boyitadi.

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg'ularini, hamdardlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning katta a'zolariga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish kabi hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar badiiy asarlardan estetik va axloqiy tasavvur oladilar. Bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda o'tkazish zarur.

Ushbu yosh bosqichida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning vazifasi – bolalarni adabiy rivojlantirish poydevorini hozirlash, ularni bo'lajak o'quvchilar sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Maktabgacha yosh davrida ertak va hikoyalarni ko'p eshitgan bolaning nutqi ravon, fikrlashi tiniq, xayolot olami cheksiz bo'ladi. O'tkazilgan tajribalar maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan ta'limning navbatdagi bosqichiga borgan bolalar bilan oiladan borgan bolalar o'rtasida ravon nutqning rivojlanish darajasi va mustaqil fikrlash imkoniyatlarida sezilarli farq borligi va bu holat bolaning maktabning boshlang'ich sinflarida yaxshi baholarga o'qishiga o'z ta'sirini ko'rsatishini belgilamoqda. Bugungi shiddatli rivojlanish davrida ertak, hikoyalar aytishning o'zi kifoya qilmaydi. Buning sababi kompyuter o'yinlari, televideniya berilayotgan multfilmlar, ertak qahramonlari aks etgan harakatli o'yinchoqlar bolada afsonaviy devlar, uchar gilamlar, yalmog'iz kampirlarga qiziqishini qiyinlashtiradi. Bu muammoni hal etishda xalq og'zaki ijodi bilan tanishtirish ishlariga zarar keltirilmagan tarzda zamonaviy bugungi kun bolasining orzu-istaklari, hayollariga moslashtirilgan mazmundagi voqea-hodisalarga boy ertak hikoyalar, she'rlar, topishmoqu, tez aytishlar yaratish zarur. Yaratilgan asarlar bola dunyosining taraqqiyotiga ta'sir etuvchi kuch bo'lib xizmat qilishi kerak. Bola yaratilgan asarlarni tinglar ekan, o'zini va o'zligini anglash, atrof-muhit, tabiatni qadrlash, odamlarga mehrli, Vataniga sadoqatli bo'lish, Ona diyorini ulug'lash, undan faxrlanishni o'rganadi. Bundan tashqari, eshitish va tushunish bola salomatligiga kuchli ta'sir ko'rsatib, boladagi turli psixologik kamchiliklarning bartaraf etilishiga sabab bo'ladi hamda bola miya faoliyati faollashadi.

References:

1. Abdurahimova D. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish. Ped. fan. dok. Avtoref., – Toshkent. 2020. – B. 6-74
2. Abdurahimova D.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq o'yinlaridan foydalanish // Bola va zamon ilmiy-ommabop jurnal. – T.: 2020. -№1. – B.18-21.
3. Babayeva D.R. Tevarak-atrofni o'rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish. Diss.ped.fan.nom. – T.: 2001. -156 b.
4. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: "Barkamol fayz media", 2018, - 432 b.
5. Berdaliyeva G. Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish. ped. fan. b. fal. dokt.

(PhD) dis. avtoreferati. – Toshkent., 2019. 10-11-b

6. Белинский И., Чернышевский В.Г., Добролюбов Н.А. О детской литературе. М., Просвещение, - с. 8.
7. Водовозова Е.Н. Умственное и нравственное воспитание детей от первого проявления сознания до школьного возраста. СПб.,1901.-с. 319-322.
8. Волобуева Л.. История дошкольной педагогики. МПГУ, 2017
9. Волобуева Л. Введение в историю дошкольной педагогики. Издательство: Академия. 2001.
10. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: Психологический очерк. - 3-е изд., - М.: Просвещение, 1991. - с. 93.
11. Nodirbek Kodirov Mamasoliyevich. (2023). INFORMATION CULTURE: A NEW APPROACH. World Bulletin of Social Sciences, 19, 129-134. Retrieved from <https://www.scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/2228>